



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



XOSIYAT RUSTAMOVANING POETIK MAHORATI

Xurinisa Xudoyberdiyeva

Namangan davlat universiteti doktoranti

Email: xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada o'zbek she'riyatining yorqin vakilasi Xosiyat Rustamova lirikasi poetik jihatdan tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *poetik takror, metafora, inversiya, anafora, ritorik so'roq.*

Zamonaviy she'riyat ko'pincha inson ichki dunyosining eng nozik, eng botiniy qatlamlarini yoritishga intiladi. Har bir ijodkor o'z ichki olamidagi qarama-qarshilik, afsus, iztirob va najotga bo'lgan intilishlarni obrazlar orqali o'z asarlarida aks ettiradi.

O'zbek she'riyatida ayol shoiralarning ovozi tobora kuchayib borayotgan bir davrda, Xosiyat Rustamova o'ziga xos poetik uslubi, nozik badiiy didi va yurakka yaqin obrazlar yaratish mahorati bilan alohida o'rin egallaydi. Uning ijodi chuqur hissiylik, falsafiy mushohada va hayotning og'riqli haqiqatlariga bo'lgan teran qarashlari bilan ajralib turadi. X.Rustamova she'rlarida lirik qahramon obrazining ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi ayol taqdiri, mehr, g'am, muhabbat va qadriyatlar yuksak poetik mahorat bilan ifodalanadi.

Xosiyat Rustamovanning she'riyati, avvalo, ichki ruhiy kechinmalarning nafis ifodalari bilan ajralib turadi. U o'z she'rlarida shunchaki voqeani emas, balki voqelik orqali o'z qalbining iztirobini, savollarini, shubhalarini ifodalaydi. Quyidagi misraga e'tibor bering:

*"Na she'rim bor,
Na bir kitobim,
Na bir qo'lim boradi ishga..."*

Bu satrlarda oddiy rad etishlar ortida ruhiy charchoq, hayotga bo'lgan befarqlik, ehtimol, depressiv holat yashiringan. Muallif hissiyotlarni ko'z-ko'z qilmasdan, ohangda, strukturada va nozik detallarda bera oladi. Bu esa yuqori poetik mahorat belgisi.

X.Rustamovanning she'rlarida sintaktik strukturaga bo'lgan e'tibor kuchli. U ko'p hollarda takroriylik, ritorik savollar, paralel tuzilmalar orqali o'quvchining diqqatini qaratadi:

*Yana umid qilsa bolar mi tongdan,
Bu elda qachondir yorishgaymi ko'k?!
Nega quyosh kabi socholmayman cho'g'?
Men yana necha yil shunday yotgayman,
Nahot, uyg'onmoqqa yuragim ham yo'q?!
[“Yana umid qilsa bo'larmi tongdan” Rido 34-b]*

She'rda uyg'onish istagi, umidsizlik ustidan g'alaba qozonish orzusi aks etgan. Ushbu she'rda ritorik so'roq asosiy stilistik vosita sifatida ishlatilgan. Ular orqali shoironing ruhiy tushkunligi, umidsizlikka qarshi kurashi, shaxsiy va ijtimoiy



uyg'onishga chaqiriq va eng muhimi, sukut ichidagi hayqiriq ifoda etilgan. She'r faqat shoirning holatini emas, balki jamiyatdagi ruhiy zaiflikni, umid va harakatga intilish zarurligini ham o'zida mujassam etadi.

Bu qandayin talofat,

Bu qandayin ko'rgulik?!

Qaydan yog'ilar ofat,

O'likmanmi yo tirik?!

[“Bu qandayin talofat” Rido 66-b]

Ushbu she'rda qo'llangan “*Talofat*” va “*ko'rgulik*” so'zlari – halokat, fojia, azob-uqubat ma'nolarini bildiradi. Bu so'zlar bilan shoira ichki ruhiy buzilish, hayotdagi og'ir sinovlarni ifodalaydi. “*Qaydan yog'ilar ofat*” – bu yerda fojia, qiyinchilik tushishi (yoki taqdirning noxush hodisalari) sirli va kutilmagan holatda kelayotgani haqida so'roq qo'yilgan. “*O'likmanmi yo tirik?!*” – bu eng dramatik va ritorik so'roq, hayot va o'lim orasidagi noaniqlik, shaxsning ruhiy halokat holatini ifodalaydi. Barcha satrlarda ritorik so'roqlar ishlatilgan, bu esa o'quvchiga hayrat, vahima va tushunmovchilikni yetkazadi. Ushbu she'riy parcha o'quvchini ichki fojia, ruhiy notinchlik va hayotiy qiyinchiliklarning markaziga olib kiradi. Ritorik so'roqlar yordamida shoir o'z ichki xavotiri va bezovtaligini kuchli ifoda etadi. Har bir savol hayrat, vahima va tushunmovchilik bilan to'la, bu holat o'quvchida ham emotsional javob uyg'otadi.

Xosiyat Rustamova she'rlarida takrorning turli ko'rinishlari qo'llangan bo'lib, ulardan eng faoli anafora hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda “Anafora (grekcha onamhore - yuqoriga ko'tarish) -so'z yoki so'zlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi, so'z takrorining xususiy ko'rinishi”⁴⁰ – deb ta'riflanadi. Shoiraning “*Biz kunlarni bo'lishib oldik*” nomli she'rda anaforaning go'zal na'munasiga guvoh bo'lamiz:

Kimga kunduz tegdi...

Kimga tun

Kimga ko'proq,

Kimga bir chimdim,

Kimdir xafa,

Kim esa mamnun...

Biz kunlarni bo'lishib oldik.

She'rda “*kimga*” va “*kim*” so'zlari satr boshida bir necha bor qo'llanib, poetik takrori yuzaga kelirmoqda. Har bir “*kimga*” ifodasi orqali turli xil hayotiy taqsimot, insoniy holatlar gavdalanitirilgan. “*Kimga kunduz...*”, “*Kimga tun*” qarama-qarshi tushunchalar (kunduz – tun) orqali antiteza yaratilgan bo'lib, bu stilistik vosita sifatida qo'llanilgan. “*Biz kunlarni bo'lishib oldik*” - so'nggi satr umumlashtiruvchi rol o'ynaydi. Bu jumlada ironiya, balki achchiq hayotiy haqiqat bor, ya'ni bu dunyoda har bir inson o'ziga berilgan kun bilan

⁴⁰ Quronov D, Mamajonov J, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-Toshkent:Akademnashr, 2010. –B.29.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



yashashi kerak. Bu she'r poetik takror vositalari orqali hayotdagi *adolat masalasi, insonlar orasidagi farqlar, taqdirning har kimga har xil yozilgani* haqida falsafiy fikr ifodalangan.

Yurakning urishi – Haqqa ibodat,

Yurakning urishi – Haqdan iborat,

[“Yurakning urishi...” Rido. 9-b]

Har ikki satr aynan bir xil boshlanadi va u sintaktik parallelizmni yuzaga keltiradi. “*Yurakning urishi*” takrori satrlarga ritmik barqarorlik beradi va asosiy tushunchani markazga olib chiqadi. Birinchi misrada “ibodat” bilan yurak urishi tenglashtirilgan bo‘lsa, ikkinchisida esa u Haqdan yaralgan mohiyat sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa ibodat → Haqning o‘zi degan mazmuniylik beradi. “Yurakning urishi” – bu yerda oddiy biologik hodisa emas. *U inson qalbining tirikligi, ruhiy uyg‘oqligi va Yaratgan bilan bog‘liqligi* timsolidir. “Haqqa ibodat” – yurak harakati, yashashning o‘zi Allohga sig‘inish sifatida talqin qilinmoqda. “Haqdan iborat” – ya’ni yurak urishi bevosita ilohiy manbadan kelgan, uni Haqning o‘zi yaratgan, demak, inson hayoti – ilohiy in’om. Bu ifodalar sufiylik ruhiyati, islomiy falsafa va poetik go‘zallikning birligidan dalolat beradi.

Buncha yaxshi ekan tiriklik,

Buncha yaxshi ekan bu hayot.

[“Shifoxona, deraza ochiq...”]

“*Buncha yaxshi ekan*” iborasi har ikki satrda aynan takrorlanadi. Bu takror orqali muallifning hissiy hayratlanishi, ichki quvonchi, hayotdan mamnunligi ta’kidlanmoqda. Bu ibora *jo‘shqin, chin dildan chiqqan ijobiy hissiyot* ifodasidir. “Tiriklik” – mavjudlik, yashash, borliqni anglatadi. “Bu hayot” – aynan hozirgi lahzada, kechayotgan umr, shaxsiy tajribadagi hayot nazarda tutilmoqda. Bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradi: mavjudlik va mavjudlikdagi go‘zallik. Bu misralarda *hayotning qadri, borliqdan zavqlanish* kabi pozitiv, umidli tuyg‘ular mavjud. Lirik qahramon hayotdan mamnun, yashayotganidan quvonmoqda. Inson har lahzada hayotni yaxshi ko‘rishi, hayotning o‘zi bir ne’mat ekanligi ta’kidlanmoqda. Oddiy so‘zlar bilan chuqur tuyg‘ular ifodalangan – bu xalqona poetikaga xos xususiyat.

Shoira ijodida poetik inversiyaning ham o‘rni beqiyosdir. Buni quyidagi she’riy parchalar misolida ham kuzatishimiz mumkin:

Qaysi aql bilan ekdim bu gulni,

Ko‘ra-bila turib singan tuvakka,

Bugun gul qoshida ko‘rdim bulbulni,

Vahima, g‘ulg‘ula tushar yurakka,

[“Qaysi aql bilan...” Ishg‘ol 8-b]

“*Qaysi aql bilan ekdim bu gulni*” misrasi oddiy tartibda “*Bu gulni qaysi aql bilan ekdim?*” shaklida ifodalanadi. Bunda “qaysi aql bilan” iborasining satr boshida kelishi – afsus, o‘zini koyishni kuchaytiradi. “*Ko‘ra-bila turib singan tuvakka*” misrasi esa to‘liq gap emas, balki holatli fraza – bu ichki monolog sifatida ishlatilgan va tovushli pauza, dramatik kuch beradi. Ushbu misralardagi *gul* – umid, sevgi, orzu, ehtimol bir inson



ramzi, *singan tuvak* – beqaror asos, noto‘g‘ri tanlov, noaniqlik ramzi, *bulbul* – go‘zallik, muhabbat, hayot nidosi ramzi, *yurakka tushgan vahima*, *g‘ulg‘ula* – ichki iztirob, kechinma kuchayishi ramzi sifatida ifodalangan. Bu yerda *gul* – ilinj, *tuvak* – asos, *bulbul* – kutilmagan tashqi hodisa, *yurakdagi g‘ulg‘ula* esa o‘zini ayblash, chalkashlik, afsus ifodasidir. Bu to‘rtlikda shoira o‘zining qilgan xatosi (gulni singan tuvakka ekish), bu xatodan kutilmagan natija (gul gulladi, hatto bulbul keldi), natijada paydo bo‘lgan daxshatli hislar (vahima, g‘ulg‘ula) kabi ruhiy-emotsional holatni ifodalagan. Ushbu to‘rtlik – o‘z tanlovidan afsuslangan, lekin bu tanlov baribir qandaydir go‘zallikka sabab bo‘lganidan hayrat va xavotirga tushgan lirik qahramon tasviridir. Stilistik jihatdan – kuchli metaforalar, ruhiy ziddiyatlar, ichki monolog va poetik tovush uyg‘unligi bilan bu she‘r zamonaviy lirikaning yorqin namunasidir.

Yam-yashil daraxtlar ketdilar qurib,

Chilparchin bo‘lgisi kelar qulfning,

Tongning yig‘lagisi kelar chinqirib,

Baqirgisi kelar temir eshikning,

[“Kun botar” Devor 32-b]

“*Chilparchin bo‘lgisi kelar qulfning*” misrasi oddiy tartibda “*Qulfning chilparchin bo‘lgisi kelar*” shaklida aks etgan. “*Chilparchin bo‘lgisi kelar*” ifodasi satr boshida bo‘lib, bu hisning portlash darajasiga yetganligiga urg‘u beradi. “*Baqirgisi kelar temir eshikning*” – eshik emas, uning ham baqirgisi keladi – insoniy holat temir jismga ko‘chirilgan, bu zo‘ravonlik va ichki bosimni kuchaytiradi. Bu yerda inversiya poetik zo‘riqishni ta’kidlash uchun ishlatilgan. She‘r davomida insoniy hislar jonli bo‘lmagan narsalarga yuklangan. Bu – personifikatsiyaning kuchli ishlatilishi. She‘rdagi har bir birlik o‘z ma’nosiga ega. Masalan, “*daraxtlar qurib ketdi*” – yashnagan hayotning so‘nishi, umidlarning qurishi, “*qulf chilparchin bo‘lmoqchi*” – chalkashlikdan chiqishga ichki urinish, siqilish, “*tong chinqirib yig‘lamoqda*” – tong odatda umid ramzi, bu yerda faryod timsolida, “*eshik baqirmoqchi*” – ichki og‘riq hatto jismoniy narsalarga o‘tgan, “*tovushsiz, jonsiz narsalarning qichqirishi*” – bu inson faryodi darajasidagi ruhiy zo‘riqishni bildiradi. Bu she‘r – psixologik siqilish, tashqi va ichki bosimlar, so‘nggi darajadagi ruhiy portlash oldini aks ettiruvchi kuchli lirika namunasi.

Unda umid parchalanmoqda, his-tuyg‘ular og‘riq bilan to‘yingan, jonsiz narsa ham faryod tortmoqda. Bu holatni poetik til orqali yetkazish yuqori darajadagi stilistik mahoratni ko‘rsatadi.

Xosiyat Rustamovanning poetik tasvirlari ko‘pincha falsafiy-metaforik xarakterga ega. U g‘am, vaqt, hayot, ko‘zyosh kabi mavhum tushunchalarni jonli, obrazli shaklda ifodalaydi.

Ko‘kning biqinini teshib o‘tar o‘q,

O‘rmalab yuradi askar bulutlar.

Qochib hech qayerga yashirinmas, yo‘q,

Baridan ensasi qotgan bulutlar,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Shoiraning “Ko‘kning biqinini teshib o‘tar o‘q” nomli she‘rining har bir misrasida metaforik birliklar mavjud. “*Ko‘kning biqini*” – bu yerda “osmon” jonli mavjudot kabi tasvirlangan. Bu metafora orqali urushning, zo‘ravonlikning ta‘siri shunchalik kuchligi, u hatto osmonni ham og‘ritishi, jarohatlaydi degan g‘oya ifodalanadi. Bulutlar “askar”ga qiyoslangan. Bu urushga safarbar qilingan, og‘ir harakatlanayotgan, ziddiyatli kuchlarni anglatuvchi obrazdir. Ushbu metafora harakatdagi ziddiyatni, bosim ostidagi tabiat va insoniyatni ifodalaydi. Bulutlar – bu saf tortgan zo‘ravonlik kuchlari. “*Ensasi qotgan*” – odatda insonga xos holat, bu yerda bulutlarga ko‘chirilgan. Ushbu she‘rda metaforalar faqatgina go‘zallik vositasi emas, balki *g‘oya, emotsiya va fojiani yetkazish quroli* sifatida ishlatilgan. X.Rustamova urushning ko‘zga ko‘rinmas, lekin chuqur iz qoldiruvchi azoblarini *tabiat obrazlari* orqali juda kuchli, ramziy va estetik tarzda ifoda etadi.

Xosiyat Rustamovaning poetik mahorati uning emotsional chuqurligi, sintaktik badiiyoti, metaforik tafakkuri va ayol qalbining samimiy ifodasi bilan belgilanadi. U oddiy so‘zlar orqali murakkab tuyg‘ularni, fojialarni, hayot falsafasini ochib bera oladi. Bu esa uni o‘zbek she‘riyatida yuksak darajadagi lirik shoiralardan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Do‘stmatov H. Uslubshunoslik asoslari. – Farg‘ona, 2022. – 69 b.
2. Quronov D, Mamajonov J, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent, Akademnashr, 2010. – 27 b.
3. Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Т., 2009. – 48 б.
4. Suyun Karimov. O‘zbek tilining fonetik stilistikasi. – Samarqand, 2016.
5. Xosiyat Rustamova. Devor. G‘afur G‘ulom nomidagi nashryot. – Toshkent, 2006.
6. Xosiyat Rustamova. Rido. “Yangi asr avlodi”. – Toshkent, 2004.
7. Uluqov N, Salixodjayeva H. Habib Sa‘dulla she‘riyati lingvopoetikasi. Namangan, 2017.